

O'ZBEKISTON TARIXIY YODGORLIKLARI-O'TMISH TARIXIMIZ VA MA'NAVİYATIMIZ KO'ZGUSI

Meliyeva Parvina

Yuridik fakulteti sotsiologiya
yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yurtimizda ming yillar davomida shakllangan boy tarixiy-madaniy meros, muhim ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, ko'hna shaharlar va ulkan me'moriy yodgorliklar xalqimiz madaniy taraqqiyotining yaqqol ifodasi ekanligini ko'rishimiz mumkin. Ayniqsa yurtimizdagi qadimiy shaharlar o'zining noyob me'moriy obidalarini, madaniy boyliklari bilan jahon tamadduni tarixida o'zgacha o'rin egallaydi va bu yodgorliklar o'zbek xalqining dunyoqarashini, diniy, falsafiy va estetik qarashlarini o'zida aks ettiradi. Shu sababli bu kabi kelajak avlodga o'tmish tarixini eslatib turuvchi yodgorliklarni asrash, ularni uzoq yillar davomida saqlab qolish va restavratsiya qilish borasida ko'rilyotgan chora-tadbirlar to'g'risida to'xtalib o'tamiz.

Kalit so'zlar: me'moriy obidalar, jahon tamadduni, restavratsiya, estetik qarashlar, Fayoztepa ibodatxonasi, buddaviylik, Ichan qal'a, Vazirlar Mahkamasi.

Tarixiy yodgorlik-bu insoniyat o'tmishini, madaniyatini, san'atini va tarixini o'zida aks ettirgan, shuningdek fan, texnika, madaniyat va xalqlarning maishiy turmushi taraqqiyoti bilan bog'liq binolar, inshootlar, tarixiy joylar va buyumlardir. Tarixiy obidalar mamlakat, xalq tarixiy-madaniy merosining bir bo'lagi hisoblanadi. Uning tarkibiga muzeylarda namoyish etiladigan tarixiy va madaniy yodgorliklar va qo'zg'almas yodgorliklar ham kiradi.

“Agar kimda-kim bizning qudratimizga shubxa qilsa, biz qurgan binolarga boqsin”, -deydi Amir Temur.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, ajdodlarimizdan qolgan madaniy, tarixiy merosga e'tibor kuchaydi va tarixiy yodgorliklar davlat nazorati ostiga olindi. Istiqlool yillarida Buxoro, Samarqand, Xiva, Qo'qon, Termiz, Shaxrisabz kabi shaharlarda ulug' ajdodlarimizning yuksak iste'dodi bilan bunyod etilgan obidalar o'zining haqiqiy qadr-qimmatini topdi, ularni ta'mirlash va asl qiyofasini tiklash davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi.

O'zbekiston hududidagi bir qancha shaharlar o'zining tarixiy qadr-qimmatiga ega. Xususan, Samarqand-jahonni eng qadimiy shaharlaridan biri. Bu shaharda Registon maydoni, Bibi-Xonim jome masjidi, Shohi Zinda majmuasi va Ulug'bek rasadxonasini o'z ichiga olgan obidalar mavjud. O'tmishning shoirlari va tarixchilari uni chinakam "Sharq jannatmakon bog'i", "Sharq olamining bebaho durdonasi" kabi go'zal o'xshatishlarni bejiz aytmagan.

Xiva-muzey-shahar, lekin Rim shahri kabi aholi yashaydigan shahardir. Dunyodagi al-Xorazmiy, Najmiddin Kubro, Shihabuddin Xivaqiy, Pahlavon Mahmud, Muhammad Rahimxon, Munis va Ogahiy kabi buyuk zotlarni yetkazib bergan zamindir. Yer kurrasida mashhur bo'lgan shaharning Ichan qal'a qismi 1990-yil Jahon merosi ro'yxatiga kiritilgan.

Shahrisabz-Amir temur shahri, bu yerda hamma narsa u yoki bu tarzda uning nomi bilan bog'liq. Bu yerda uning otasi Muhammad Tarag'ay va ma'naviy ustози Shamsiddin Kulol ko'milganlar va uning katta o'g'illari Jahongir Mirzo va Umarshayx Mirzolar g'ori joylashgan.

Buxoro-miloddan avvalgi VI asrda asos solingan. Shaharning har bir go'shasida-boy tarixga ega minoralari, osori-atiqalari, muqaddas qadamjolari va obidalarida olis o'tmishning aks-sadosi, qoldirgan izi bor.

Shuningdek, O'zbekiston qadimdan faqat savdo yo'llari kesishgan markaz bo'lib qolmasdan, balki moniylik, buddaviylik va zardushtiylik singari turli xil dinlar tinch va osoyishta amal qilingan makon ham hisoblangan. Xususan, yurtimizning Surxondaryo viloyatida mazkur davrga oid bir nechta buddaviylik ibodatxona majmualari saqlanib qolgan. Ular orasida Ayritom, Qoratepa va Fayoztepa tarixiy yodgorliklari eng mashhur madaniy markazidir. Fayoztepa ibodatxona majmuasi o'zining boy bitiklari va yaxshi saqlangan haykallari bilan boshqa yodgorliklardan ajralib turadi. Majmua 19 ta alohida binodan iborat bo'lib, uning devorlari chuqur o'yilgan mustahkam qo'rg'on shaklida qurilgan. Mamlakatimizning Samarqand viloyatidagi Imom al-Buxoriy ziyoratgohi, Registon maydoni, Sherdor maqbarasi, Toshkentdagi Ko'kaldosh madrasasi, Xazrati Imom masjidi, Buxorodagi Minorai kalon yodgorligi, Xivadagi Ichan qal'a, Shahrisabzdagi Oqsaroy, Ko'kgumbaz yodgorliklari va shu kabi ko'plab tarixiy yodgorliklar, muqaddas qadamjolarni keltirishimiz mumkin.

Bugungi kunda mamlakatimizda 8210 ta moddiy, madaniy meros ko'chmas melk obyekti sifatida davlat muhofazasiga olingan. Ulardan 4788 tasi arxeologiya, 2265 tasi arxitektura obyekti, 625 tasi monumental san'at asarlari va 530 tasi diqqatga sazovor joylardir.

Bu kabi yurtimiz hududidagi o'tmish tariximizni eslatib turuvchi obidalar bir necha yillardan buyon xalqimizning va chet el sayyohlarining e'tibor markazida bo'lib kelmoqda. Har yili ushbu yodgorliklarni ko'rgani minglab sayyohlar yurtimizga tashrif buyuradi. Bu esa, albatta mamlakatimiz iqtisodiyoti va xalqaro nufuzini oshiradi. Shu sababli bunday yodgorliklarni asrash va muhofaza qilish ham muhim ahamiyatga ega. Bu borada hozirda davlatimiz rahbarining qarorlari va ko'rilayotgan chora-tadbirlarni aytish mumkin.

Madaniy va tarixiy yodgorliklarni saqlash vazifasi umumdavlat ahamiyatiga ega bo'lib, u ma'naviy tarbiyaning asosiy qismini tashkil qiladi. Madaniy va tarixiy yodgorliklar muhofazasi-insoniyat madaniy merosini saqlash va muhofaza qilish yo'lidagi xalqaro,davlat va jamoatchilik tadbirlari tizimidan iborat. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan buyon mamlakatda nafaqat yodgorliklarni tiklash ishlari orqali madaniy merosni saqlashga,balki milliy o'ziga xoslikni mustahkamlashga va jahon madaniyatida tan olinishiga ham katta e'tibor qaratmoqda.

O'zbekistonda yodgorliklarni muhofaza etish,asosan, XX asrning 20-yillarida boshlangan. 1920-yil Maorif xalq komissarligi qoshida muzeylar,san'at asarlari va qadimiy yodgorliklarni muhofaza qilish Turkiston qo'mitasi-Turkkomstaris tuzilgan. Hozir O'zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi huzuridagi Madaniy meros ob'yektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish ilmiy ishlab chiqarish Bosh boshqarmasi shug'ullanmoqda. Respublika hududida va chet mamlakatlarda saqlanayotgan noyob qo'lyozmalar,madaniy, tarixiy yodgorliklar, hunarmandchilik, xalq og'zaki ijodi namunalari, qadimiy davlatchilik tarixiga oid hujjatlar va boshqalar bilan shug'ullanish maqsadida "Oltin meros" xalqaro xayriya jamg'armasi tuzilgan.

1970-yillardan boshlab O'zbekiston yodgorliklarni saqlash xalqaro tashkilotlar,xususan YUNESKO bilan hamkorlikni kuchaytirdi. Xiva shahrining Ichan qal'asi, Buxoro va Samarqanddagi obidalar xalqaro ekspertlar ishtirokida restavratsiya qilinib,butun insoniyatning madaniy boyligi sifatida e'tirof etildi. Bu esa O'zbekistonning tarixiy merosini saqlash borasidagi siyosatini mustahkamlashga xizmat qildi.

O‘zbekiston Respublikasida 2001-yil 30-avgustda “Madaniy meros ob’ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida” qonun qabul qilindi. Ushbu Qonunning maqsadi O‘zbekiston xalqining umummilliy boyligi bo‘lmish madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasining “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi qonunining 5-moddasida:

Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi davlat boshqaruvini amalga oshiruvchi organlar aytilgan.

Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi davlat boshqaruvi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “O‘zarxiv” agentligi va mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

20-moddasida: madaniy meros obyektlarini asrash chor-tadbirlari yozilgan.

Moddiy madaniy meros obyektlarini asrash chora-tadbirlari ularni konservatsiyalash, tuzatish, ta’mirlash, hozirgi zamonda foydalanishga moslashtirishni, shuningdek ular bilan bog‘liq ilmiy va ilmiy-texnik tadqiqotlar, loyihalash hamda ishlab chiqarish ishlarini o‘z ichiga oladi.

Moddiy madaniy meros obyektini konservatsiyalash-moddiy madaniy meros obyektini mavjud ko‘rinishda asrash va uning holati yomonlashuvining oldini olish maqsadida amalga oshiriladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadqiqotlar, loyihalash va ishlab chiqarish ishlari majmui.

Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalar muhokamasi portalida Vazirlar Mahkamasining 18-aprel “Yodgorliklarni va tarixiy joylarni asrash xalqaro kuni”

ni O‘zbekiston Respublikasida keng nishonlash to‘g‘risidagi qarori loyihasi joylashtirildi. Ushbu kun Yodgorliklar va diqqatga sazovor joylarni muhofaza qilish xalqaro kengashi tomonidan 1982-yilda belgilangan va 1983-yilda UNESCO bosh konferensiyasining 22-sessiyasida tasdiqlangan.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, yurtimizda joylashgan bunday yodgorliklar davlatimizning buyuk tarixi va o‘tmishidan dalolat berib turadi. Har yili chet davlatlardan sayyohlarning kelib, tarixiy yodgorliklarimizni qiziqish bilan tomosha qilishi va o‘rganishi davlatimizni xalqaro nufuzini oshiradi. Shu tufayli bu kabi obidalarni uzoq vaqt saqlab, kelajak avlodga buyuk tariximizni eslatib turishi uchun ta’mirlash davlat siyosatida muhim ahamiyatga ega. Bu ishlar O‘zbekistonning madaniy xotirasini avlodlarga yetkazishdagi eng muhim omil va o‘tmishga bo‘lgan hurmat, balki bugungi va kelgusi avlod uchun milliy o‘zlikni anglash, tarixiy merosga daxldorlik tuyg‘usini kuchaytirish vositasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Sh.Sayfuddinova.O‘zbekistonda yodgorliklarni ta’mirlash tarixi (XX asr oxirlaridan 1980-yillargacha) Management and Future Technologies.2025.
- 2.Tarixiy yodgorliklar.tarixiy voqelik. oyina.uz/uz/teahause/2339.
- 3.O‘zbekiston tarixiy-madaniy yodgorliklar: Fayoztepa buddaviylik ibodatxona majmuasi. uzbekistan-geneva. ch/o-zbekiston-tarixiy-madaniy-yodgorliklari-fayoztepa-buddaviylik.html.
4. A.E.Qayumov. Tarixiy obidalarimiz me’morchiligi.2024.
5. O‘zbekiston madaniy merosi.uzbekistan.travel/uz/madaniy-meros/
6. uz.wikipedia.org/wiki/tarixiy va madaniy yodgorliklar muhofazasi.